

MAVZU: ZAMONAVIY O‘ZBEKISTONDA AYOLLARNING IJTIMOIIY AHVOLI

*Namangan davlat universiteti
Pedagogika nazariyasi va tarixi kafedrasida
o'qituvchisi **Boyzaqova Umida**
Namangan davlat universiteti
Pedagogika fakulteti Ijtimoiy ish yo'nalishi
2- bosqich talabasi
Tōxtaxōjayeva Muxtasarxon Yaxyoxon qizi*

ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada zamonaviy O'zbekistonda ayollarning ijtimoiy ahvoli va xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda amalga oshirilayotgan islohotlar hamda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan chora-tadbirlarning muhim jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek bugungi kunda **jamiyat hayotida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari o'rganilgan. Ushbu fikrlar yuzasidan xulosa va takliflar keltirilgan.***

***Kalit so'zlar:** Xotin-qizlar, ayollarning ijtimoiy ahvoli, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, "Ayollar daftari", "Biznes ayollar" dasturi, xotin-qizlar ta'limi.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется социальное положение женщин в современном Узбекистане и важные аспекты проводимых реформ по повышению общественно-политической активности женщин и принимаемых мерах по поддержке женщин -исследуются проблемы, возникающие при повышении политической активности и пути их решения. По этим вопросам представлены выводы и предложения.

***Ключевые слова:** Женщины, социальный статус женщины, поддержка женщин, «Женский блокнот», программа «Деловая женщина», женское образование.*

ABSTRACT

This article analyzes the social situation of women in modern Uzbekistan and the important aspects of the reforms implemented to increase the socio-political activity of women and the measures taken to support women. -problems arising in increasing political activity and their solutions are studied. Conclusions and suggestions are presented on these points.

***Key words:** Women, women's social status, women's support, "Women's Notebook", "Business Women" program, women's education.*

KIRISH

Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha jabhalaridagi jarayonlarda xotin-qizlarning ishtiroki va faolligi tobora ortib bormoqda. Bu, albatta, yurtimizda opa-singillarimizning o'z salohiyatlarini to'laqonli yuzaga chiqarishi uchun yaratib berilayotgan imkoniyatlar, imtiyozlar, umuman, ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli ishlar samarasidir. Qolaversa, jamiyatimiz rivojida hayotimiz gultoji bo'lgan xotin-qizlarning ma'naviy yetuk, tafakkuri keng, iqtisodiy, huquqiy jihatdan bilimdon va faol bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda yurtimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularni qiynayotgan muammolarni bartaraf etish, gender tengligini ta'minlash, turli tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish, salomatligini mustahkamlash, umuman, xotin-qizlar masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Prezidentimiz, hukumatimiz tomonidan ana shu yo'nalishga oid 40 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 11 sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmoni hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasini 2023 yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ham xotin-qizlar masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Xususan, Prezidentimiz farmoni va qarori bilan amalga oshiriladigan vazifalar doirasida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish, gender tenglikni ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratilgani ayollarimizni behad quvontirdi.

Umuman olganda, O'zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'рни va mavqeyini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Zero, jamiyat rivojini xotin-qizlarsiz, ularning ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu bois ayollarning oilada ham, davlat va jamoat ishlarida ham emin-erkin faoliyat yuritishlari, ularning huquq va manfaatlarini ro'yobga chiqarish yo'lida mamlakatimiz miqyosida qator chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda.

Bugungi o'zbek ayoli kim? U boshqaruvchimi yo bo'ysunuvchi, ergashuvchimi yo ergashtiruvchi? Zamonaviy o'zbek ayoli portretini qanday chizgilar bilan boyitish mumkin? Ayol, eng avvalo, "Ona"dir, keyin esa u boshqaruvchi va bo'ysunuvchi, ergashtiruvchi va ergashuvchi hamdir.

Xotin-qizlarning ijtimoiy faoliyati ularning iqtidori, qobiliyati, tashabbuskorligi bilan belgilanadi. Hech bir davrda ayollar faqat boshliq bo'lishi yoki faqat ergashishi lozim deb hisoblanmagan. Aksincha, hozirgi kunda xotin-qizlarga munosabat ijobiy tomonga o'zgarib, ularning ona bo'lishi bilan birga potensial qobiliyatlaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Xotin-qizlarning jamiyatdagi o'рни, ularning ijtimoiylashuvida madaniy, ma'naviy va ijtimoiy-siyosiy omillarining ta'siriga doir fikrlar V.Vundt, E.Dyurkeym,

P.Jane, U.Jeyms, Ch.Kuli, S.Koll, E.Klapared, J.Mill, B.Shtern va boshqa xorij olimlari asarlarida aks etgan.

O.Bo'riyev, M.Vohidov, L.Munavvarova, O.Musurmanova, M.Mamatov, K.Nasriddinov, M.Sangilov, U.Toshtemirov, I.Shoymardonov, M.Xolmatova, M.O'zbekov kabi mamlakatimiz olimlari oila, uning madaniyati, ijtimoiy muammolari masalasiga to'xtalib, ularni ancha mufassal tadqiq etgan holda xotin-qizlarning oiladagi ijtimoiy faolligini o'z ilmiy izlanishlarida asoslab berganlar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yangi O'zbekistonda xotin-qizlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga munosib hissa qo'shmoqdalar, ular jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotining barcha sohalarida faoliyat ko'rsatib, davlat hokimiyati va jamoat tashkilotlari faoliyatida keng ishtirok etishmoqda, yosh avlod tarbiyasiga, sog'liqni saqlash, ijtimoiy soha, sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarni rivojlantirishga hissa qo'shmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-son Farmonida oila institutini mustahkamlash va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatining 7 ta ustuvor yo'nalishi, shuningdek, qo'mitaning asosiy vazifa va faoliyat yo'nalishlari belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni³ bilan 2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dastur hamda 2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dasturni 2022–2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi.

Mazkur hujjatlardan oila institutini yanada mustahkamlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ayollarning jamiyat hayotidagi nufuzini, faolligini oshirish, mehnatini munosib rag'batlantirish, tashkilotchilik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik qobiliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlar ko'lamini kengaytirish masalalari o'rin olgan.

Farmonda O'zbekiston Xotin-qizlar davlat qo'mitasining jamiyat hayotidagi faolligini oshirish, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish maqsadida qo'mita faoliyatining ustuvor

yo'nalishlari belgilab berildi.

Xotin-qizlar qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalarining yangilangan tuzilmalari tasdiqlandi.

Shu o'rinda, O'zbekistonda ushbu yo'nalishdagi me'yoriy-huquqiy bazani rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarga to'xtalish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'tgan yillar mobaynida ayollar manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan qariyb 100 ta milliy va xalqaro huquqiy hujjat qabul qilindi va ratifikatsiya qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 8-mart – "Xalqaro xotin-qizlar kuni" bayramiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutqida shunday degan: "O'zbekiston deb atalgan jonajon Vatanimizda har qaysi mard yigit, avvalo, mehribon onasi, oilasi, farzandlari baxtli bo'lishini istaydi, albatta. Hazrat Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, bu yo'lda o'zining butun borlig'ini bag'ishlashga tayyor turadi".

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning 45 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Jumladan, davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1400 ga yaqin xotin-qiz rahbarlik lavozimlarida mehnat qilmoqda. Ulardan 17 nafari senator, 16 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, 1075 nafari esa xalq deputatlari mahalliy kengashlari tarkibida faoliyat yuritmoqda.

O'nlab opa-singillarimiz "O'zbekiston Qahramoni", "O'zbekiston fan arbobi", "O'zbekiston xalq o'qituvchisi", "O'zbekiston xalq shoiri", "O'zbekiston xalq artisti" singari davlatimizning yuksak faxriy unvonlari, orden va medallariga sazovor bo'lgan. Ularning orasida 500 nafardan ziyod fan doktorlari va akademiklar, minglab fan nomzodlari o'z bilimi, iste'dodi bilan Vatanimiz ravnaqi yo'lida astoydil xizmat qilib kelmoqda. Jamiyat va davlat hayotida faollik, tashabbuskorlik ko'rsatgan, o'zining samarali mehnati bilan oilaning shakllanishi va farovonligi mustahkamlanishi, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo'shgan xotin-qizlarga beriladigan "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni ta'sis etildi.

2021-yilda ayollar tadbirkorligi dasturlari doirasida 200 mingdan ziyod loyihalarga 2 trillion so'm kredit va subsidiyalar ajratilib, 320 ming xotin-qiz doimiy ish o'rniga ega bo'ldi. 190 ming nafar ayol kasb-hunarga o'qitildi. 4 mingdan ziyod xotin-qizlarga uy-joy to'lovining boshlang'ich badaliga mablag' ajratildi.

2 ming nafar qiz alohida grant asosida oliy ta'limga qabul qilindi. Natijada, o'tgan yili oliy o'quv yurtlariga kirgan talabalarning 60 foizini xotin-qizlar tashkil etdi.

Umuman, 2020-yildan boshlab, "Ayollar daftari" tizimi yo'lga qo'yilib, unga kiritilgan 900 mingga yaqin xotin-qizlarga ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy, huquqiy va psixologik ko'mak berilgan.

2022-yil 1-sentyabrdan xususiy sektorda rasmiy ishlayotgan ayollarga homiladorlik nafaqasini davlat tomonidan to'lash tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha

ko'rsatma berildi. Bu maqsadlar uchun joriy yilda byudjetdan 200 milliard so'm, 2023-yilda esa 1 trillion 700 milliard so'm yo'naltirilishi qayd etildi.

Ayollarning uy-joy sharoitini yaxshilash masalasiga to'xtalar ekan, Prezidentimiz shunday dedi:

– Bir vaqtlar ayollarga imtiyozli uy berishga imkon yo'q edi, bunga qonuniy asos, mablag' yo'q edi.

Ipoteka kreditlari bo'yicha ajratiladigan subsidiyalarning kamida 40 foizi xotin-qizlarga yo'naltirilishi belgilandi.

Ularning salomatligini tiklash bo'yicha ham aniq tadbirlar amalga oshiriladi. Xususan, joriy yilda 6 ming nafar ayolga yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatiladi. Nogironligi bo'lganlar reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlanadi. 3 million nafar xotin-qiz onkologik skriningdan o'tkaziladi. Shuningdek, qizlarni emlash, fertil yoshdagi ayollarni dori va vitaminlar bilan bepul ta'minlash bo'yicha topshiriqlar berildi.

Qizlarning yaxshi ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi Prezidentimizni hamisha o'ylantiradigan masalalardan biri. Bu yig'ilishda ham ular uchun ta'lim sharoitlarini kengaytirish bo'yicha tarixiy qarorlar qabul qilindi.

Jumladan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Xotin-qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash dasturi ishlab chiqiladi. Dastur doirasida, poytaxtimizda asosan xotin-qizlarni o'qitish uchun davlat-xususiy sherikchilik asosida to'qimachilik sohasida alohida universitet tashkil etiladi. Paxta-to'qimachilik va pillachilik klasterlari ishtirokida joylarda universitetning texnikumlari ham ochiladi.

Yangi o'quv yilidan boshlab, ta'lim kontraktlarini to'lash uchun qizlarga ilk marotaba 7 yil muddatga foizsiz kredit berish joriy qilinadi. Buning uchun, joriy yilda banklarga 1 trillion 800 milliard so'm, kelgusi besh yilda 8 trillion so'm mablag' ajratiladi.

Yana bir yangilik: kelgusi o'quv yilidan boshlab, magistraturada o'qiyotgan qizlarning kontrakt pullari to'liq byudjetdan qoplab beriladi. Shuningdek, ehtiyojmand oila vakillari, ota yoki onasini yo'qotgan talaba qizlarning ta'lim kontrakti mahalliy byudjetdan to'lanadi.

Jamiyatimizda olim ayollar ulushini sezilarli oshirish uchun doktorantura yo'nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratiladi.

Monomarkazlar va oliygohlar qoshida Malakani baholash markazlari tashkil etish, ayollarni talab yuqori bo'lgan ishchi kasblarga o'qitish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. 2022-2024-yillar uchun "Biznes ayollar" dasturi qabul qilinishi belgilandi. Uning ijrosiga jami 8 trillion so'm yo'naltiriladi. Ayollar uchun tadbirkorlik kurslari tashkil etiladi, imtiyozli kreditlar beriladi. Davlatimiz rahbari ehtiyojmand xotin-qizlar bandligini ta'minlagan tadbirkorlarni ham qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidladi. Ular uchun ko'plab soliq va savdo imtiyozlari belgilandi. Yig'ilishda ayollarning

huquqiy himoyasini kuchaytirish masalasiga ham to'xtalib o'tildi. Bugungi kunda tazyiq va zo'rvonlik uchragan ayollar 30 kun muddatga alohida himoyaga olinadi. Lekin, undan keyingi tizim bo'shliq bo'lib qolgan. Shu bois, endi ayollarning tazyiq va zo'rvonlikdan himoyasi sud tomonidan ta'minlanishi, alohida himoyaga olish bir yilgacha belgilanishi aytiladi.

Oilalarni mustahkamlash, farzand tarbiyasida ota-onaning mas'uliyatini oshirish ham bugungi kundagi dolzarb masalalardan. Prezidentimiz bu borada obro'-e'tiborli, bilimli xotin-qizlardan iborat "Oqila ayollar" harakatini tashkil qilish taklifini bildirdi.

– Bu harakat "mahallaning vijdoni"ga aylanishi kerak. Chunki ma'rifatli jamiyatni ma'rifatli onalarsiz qurib bo'lmaydi, – deya ta'kidladi Shavkat Mirziyoyev.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Demak, xotin-qizlarning jamiyatda o'z o'rnini topishida, birinchi navbatda, ota-onalarning munosabati katta rol o'ynasa, ikkinchisi, oliy ta'limda ularni qamrab olish imkoniyati muhim o'rin tutadi. Masalan, talaba qiz turmushga chiqsa, o'qishni qiynalib davom ettirishga majbur bo'ladi. Qo'llab-quvvatlaydigan qaynota bilan qaynonaning qo'lga tushsa-ku yaxshi, ammo "o'qib nima bo'larding", deydi oilaga kelin bo'lsa, buyog'ini tasavvur qilavering. Yillar davomida to'planib qolgan shu kabi muammolar, oliy o'quv yurtlariga yoshlarni qamrab olish ko'rsatkichining to'qqiz foiz ekanligi oliy ma'lumotli, keng tafakkur va dunyoqarashi bor ayollarni tarbiyalashda katta to'siq bo'ldi. Quvonarlisi, bugungi kunda zamonaviy fikrlaydigan ota-onalar, qaynota-qaynonalar, kuyovlar ko'payib boryapti. O'z navbatida, xotin-qizlarning ta'lim olishi, kasbli bo'lishi uchun qog'ozda emas, real hayotda katta qulayliklar, yengilliklar yaratilmoqda. Bugun gender tenglik degan demokratik tamoyil haqida ochiq-oydin gapirilayotgani, bu borada izchil chora-tadbirlar olib borilayotgani fikrimizga misol bo'la oladi.

Jamiyat hayotida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish zarur:

– xotin-qizlarning mehnat va turmush sharoitini yaxshilash masalalarini o'z ichiga olgan dasturlar ishlab chiqish;

– xotin-qizlarning o'z-o'zini band etish va tadbirkorlik tashabbusiga ko'maklashish;

– ish o'rinlarini yaratish, kasanachilik mehnatini tashkil etish

Xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini kengaytirish maqsadida davlat darajasida quyidagi choralarni ko'rish zarur:

– yangi ish o'rinlarini yaratish;

– xalqaro banklar jamg'armalar va tashkilotlarni xotin-qizlarning ijtimoiy zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash uchun kichik imtiyozli kreditlar olish imkoniyatlarini tashkil etishga jalb etish;

- uy bekalari bo‘lgan xotin-qizlarni band qilish bo‘yicha bepul o‘quv kurslarini ochish;
- uy-fermer xo‘jaliklariga soliq solish mexanizmini qayta ko‘rib chiqish;
- kichik biznes sohasidagi qishloq xotin-qizlarini rivojlantirish va rag‘batlantirish;
- xotin-qizlarga imtiyozli kreditlar berishni davom ettirish;
- xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish uchun jamoat va davlat tashkilotlarini jipslashtirish;
- xotin — qizlarning huquqiy savodxonligi va ijtimoiy faolligini oshirish uchun mahalla miqyosida ishlash, milliy qadriyatlarimizga asoslangan milliy hunar turlarining yo‘q bo‘lib ketmasligi uchun xotin-qizlarimizni jalb etish va hokazo.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 11 sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab- quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son Farmoni.
5. Bazarova D. “O‘zbekistonda xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish – davr talabi”. –Toshkent: TDYUU, 2019.